

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.Maxmudova

Bakir Cho'ponzoda adabiy merosini o'rganishning o'zbek va Ozarbayjon xalqlari uchun pedagogik ahamiyati 6

F.O'.Toshboltayev

Integration of digital tools into the educational process 9

T.S.Aldasheva

"Etnomadaniyat" fani asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning metodik mazmuni 12

S. Sh.Abdullayev

Dasturlash fanini o'qitishning dasturiy-metodik ta'minotini takomillashtirish 16

I.M.Alimjonova

Kohlbergning axloqiy rivojlanish bosqichlari orqali til o'rganuvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish 21

A.H.Matyoqubova, X.X.Yuldashxodjayev

Turon teatr truppasi: o'zbek sahna san'atining shakllanishida ijtimoiy-ma'naviy omil 24

N.M.Ikromova, B.Isalayev

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida oliy ta'lim tizimi amalga oshirilgan islohotlar (1991-2000) 27

M.M.Mo'minova, T.V.Jo'rayev, M.M.Turdimatov

Bo'lajak pedagoglarning axborot xavfsizligi kompetensiyasini baholash mezonlari va metodlari ... 32

Q.B.Sobirjonov

Raqamli ta'lim tizimida ilmiy-pedagogik yonadshuv asosida ma'lumotlarni tahlil qilish 38

P.N.Toshmurodov, B.E.Xujanov

Molekulyar fizikaga oid masalalarni raqamli texnologiyalar yordamida yechish usullari 41

X.D.Muqimova

Kommunikativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasi 46

X.N.Abduraxmonov

Tibbiy ta'limda diagnostik kompetentlikni rivojlantirishning integrativ pedagogik strategiyalari: tibbiyot talabalari o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot 49

I.I.Baxromova

Adaptiv platformalarning til o'rganishdagi imkoniyatlari 54

Y.D.Kambarova

Есть ли роль автономии студентов на занятиях esp? 58

T.D.Namozova, Sh.D.Jo'raboyeva

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kreativlik 63

Sh.N.Abdullaeva

Innovative approaches to teaching english as a foreign language: contemporary methodologies and digital integration 72

V.I.Xoldarova

Raqamli texnologiyalar asosida boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodlari 79

N.Z.Umarova

Chet tili o'qitish jarayonida sotsiomadaniy kompetensiyani shakllantirish usullari (poetik matnlar yordamida) 82

I.A.Tuychiyev

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun innovatsion harakat dasturlari va pedagog-mutaxassislarining kasbiy salohiyatini oshirish mexanizmlari 87

E.Muxtarov

So'nuvchi mexanik tebranishlarni raqamli texnologiyalar asosida interaktiv o'qitish metodikasi 92

B.S.Shermuhammadova

Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari 100



UO'K:

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR UCHUN INNOVATSION HARAKAT
DASTURLARI VA PEDAGOG-MUTAXASSISLARNING KASBIY SALOHİYATINI OSHIRISH
MEXANIZMLARI****ИННОВАЦИОННЫЕ ПРОГРАММЫ ДВИГАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ ДЛЯ ДЕТЕЙ
ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА И МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ-СПЕЦИАЛИСТОВ****INNOVATIVE MOTOR ACTIVITY PROGRAMS FOR PRESCHOOL CHILDREN AND
MECHANISMS FOR ENHANCING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF PEDAGOGICAL
SPECIALISTS****Tuychiyev Ashurali Ibragimovich** 

Farg'ona davlat universiteti Jismoniy tarbiya nazariyasi kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagilar jismoniy tarbiyasining nazariy asoslari va amaliy mazmunini chuqurlashtirish, shuningdek, tarbiyachilarni jismoniy madaniyat sohasidagi maxsus kompetensiyalar bilan qurollantirish zarurligi asoslab berilgan. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan takliflar "jismoniy tarbiyadan takomillashtirilgan davlat dasturi"ni yaratish va uning o'quv materiallarini aprotasiyadan o'tkazish zaruratini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tizimida jismoniy madaniyatni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish va tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga amaliy asos yaratadi.

Аннотация

В статье обоснована необходимость углубления теоретических основ и практического содержания физического воспитания детей дошкольного возраста, а также оснащения педагогов специальными компетенциями в области физической культуры. Предложения автора указывают на необходимость создания «усовершенствованной государственной программы по физическому воспитанию» и апробации её учебных материалов. Результаты исследования создают практическую основу для развития физической культуры в системе дошкольного образования, пропаганды здорового образа жизни и повышения профессиональной подготовки педагогов.

Abstract

The article substantiates the necessity of deepening the theoretical foundations and practical content of physical education for preschool children, as well as equipping educators with specialized competencies in the field of physical culture. The proposals developed by the author highlight the need to create an "advanced state program in physical education" and to conduct the approbation of its educational materials. The research results provide a practical basis for developing physical culture in the preschool education system, promoting a healthy lifestyle, and enhancing the professional training of educators.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, ontogenez, yosh davrlari tasnifi, jismoniy madaniyat, tarbiyachi malakasi, kasbiy kompetensiya, "Bolajon" dasturi, "Ilk qadam" dasturi, nazariy tayyorgarlik, jismoniy mashqlar, pedagogik kollej, amaliy ko'nikma, davlat dasturi, jismoniy tarbiya metodikasi.

Ключевые слова: дошкольное образование, онтогенез, классификация возрастных периодов, физическая культура, квалификация педагога, профессиональная компетенция, программа «Bolajon», программа «Ilk qadam», теоретическая подготовка, физические упражнения, педагогический колледж, практические навыки, государственная программа, методика физического воспитания.

Key words: preschool education, ontogenesis, classification of age periods, physical culture, educator's qualification, professional competence, "Bolajon" program, "Ilk qadam" program, theoretical training, physical exercises, pedagogical college, practical skills, state program, methodology of physical education.

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ayniqsa maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Prezidentimiz tashabbuslari bilan qabul qilingan farmon va qarorlar, shuningdek, hukumatimiz tomonidan amalga

PEDAGOGIKA

oshirilayotgan aniq amaliy ishlar hamda strategik dasturlar maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda. Ushbu hujjatlar va tashabbuslarning asosiy maqsadi — xalq ta'limi va tarbiyasini xalqaro andozalar darajasiga ko'tarish, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini milliy ta'lim tizimining turli yo'nalishlariga, xususan, maktabgacha ta'lim va uning boshqaruv tizimiga tatbiq etishdan iboratdir.

Bu boradagi asosiy g'oya — millat genofondini mustahkamlash, barkamol avlodni tarbiyalash hamda bolaning jismoniy va ma'naviy kamolot poydevorini aynan maktabgacha yosh davridan boshlab shakllantirishdan iborat. Maktabgacha ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va harakat faoliyatining o'rni beqiyos bo'lib, u bolalarning sog'lom o'sishi, organizmning to'g'ri shakllanishi va harakat ko'nikmalarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu jihatdan qaraganda, "Ilk qadam" o'quv dasturi (2018-yil) maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etishda muhim manba sifatida e'tirof etiladi. Mazkur dastur BMTning Bolalar jamg'armasi — YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi texnik ko'magida ishlab chiqilgan bo'lib, unda maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy madaniyati, sog'lom turmush tarzi, harakat faoliyati va psixofiziologik rivojlanishini ta'minlashga oid nazariy hamda tashkiliy asoslar aniq belgilab berilgan [8,10].

Shunga qaramay, amaliyotda maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasining nazariy asoslari, o'quv dasturlari va metodik yondashuvlarini yanada takomillashtirish zarurati mavjud. Bugungi kunda bola organizmining jadal rivojlanish davrida harakat faoliyatining tabiiy zaruriyat sifatida qaralishi, ya'ni suv, havo va oziq-ovqat kabi muhim hayotiy ehtiyojlar qatoriga kiritilishi ilmiy asosga ega. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy madaniyatini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish masalalari zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot doirasida ana shu jarayonlarning mazmuni, tizimi va metodik asoslarini o'rganish, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligini jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi asosida mustahkamlash istiqbollari asoslab beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mamlakatimizda jismoniy madaniyat tizimining eng muhim va boshlang'ich bo'g'ini inson hayotining dastlabki yillaridan, ya'ni tug'ilgan kundan boshlab 3–5 va 6–7(8) yoshgacha bo'lgan davrni qamrab oluvchi "maktabgacha yoshdagilik davri" hisoblanadi. Shu yosh oralig'ida bolaning organizmi, a'zolari va funksional tizimlarining shakllanish jarayoni yuqori darajadagi intensivlik bilan kechadi. Ularning jismoniy o'sishi, nerv tizimi faoliyatining takomillashuvi, asosiy harakat malakalari (yurish, yugurish, muvozanat, tirmashish, sakrash va hokazolar) bosqichma-bosqich rivojlanadi, harakat sifatleri va ruhiy qobiliyatlarining tarbiyalanishi uchun zarur shart-sharoitlar yuzaga keladi.

Ushbu davrda bolaning jismoniy shakllanishi va funksional rivojlanishi uzluksiz biologik jarayon sifatida kechadi. Bu jarayon ilk bolalik, birinchi bolalik va maktabgacha yosh davrlarini o'z ichiga oladi. Olimlar T.S.Usmonxo'jayev, Sh.X.Xankeldiyev, A.Abdullayev va boshqalar o'z ilmiy ishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning fiziologik va anatomik rivojlanish bosqichlarini batafsil tahlil qilib berganlar [1].

Xorijiy tadqiqotchilardan N.P.Gundobin 1906-yilda "Turli yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari" nomli asarida "ontogenez" tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan. U inson organizmining o'sish va rivojlanish jarayonlarini davriy bosqichlarga ajratish tizimini taklif etgan. Keyinchalik rus olimlari V.V.Bunak, M.I. Korsunskaya, P.N. Bashkirov kabi tadqiqotchilar bu nazariyani rivojlantirib, jismoniy rivojlanganlikni organizmning morfologik va funksional holatlari majmui sifatida talqin qilganlar. Ularning fikricha, jismoniy rivojlanish — bu organizmning shakli, massasi, mustahkamligi va mexanik tuzilish sifati bilan belgilanadi [1,2,3,4].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqotlarimiz davomida Farg'ona viloyatining 20 dan ortiq maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati o'rganildi. Bugungi kunda mazkur muassasalar davlat, nodavlat va sheriklik asosida faoliyat yuritib, dastlabki ijobiy natijalarga erishganliklari kuzatildi. Biroq tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'tgan asrlarda bolalarning yosh bosqichlarini davrlashtirish masalasida ilmiy manbalarda turlicha yondashuvlar mavjud bo'lgan. Bu farqlanishlarning asosiy sababi — bolalar organizmidagi biologik, psixofiziologik va ijtimoiy omillarni baholashdagi turfa metodologik yondashuvlardir.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bolalarning yosh davrlarini ilmiy jihatdan to'g'ri tasniflash ularning biologik rivojlanishidagi evolyutsion o'zgarishlarni hisobga olishni talab etadi. Hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarida bu masala ontogenez nazariyasi asosida tahlil qilinadi va maktabgacha yoshdagi davrning aniq chegaralari belgilangan.

Tadqiqotimiz davomida 47 nafar tarbiyachilar ishtirokida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, ularning deyarli barchasi bolalarni "kichik", "o'rta", "katta" va "maktabga tayyorlov guruhi" tarzida tasniflashni bilishadi. Biroq ularning aksariyati bolalarning yosh bosqichlaridagi jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari, morfologik o'zgarishlar va fiziologik xususiyatlar haqida yetarli bilimga ega emasliklarini ko'rsatdi.

Respondentlarning katta qismi jismoniy madaniyat, oilaviy jismoniy tarbiya, harakat faoliyati vositalari bo'yicha nazariy tayyorgarlik darajasi pastligini, amaliy ko'nikmalarda esa kamchiliklar mavjudligini namoyon etdilar. Shuningdek, ular bola parvarishi, ovqatlanish rejimini tashkil etish, jismoniy mashqlarni to'g'ri tanlash va bajarish, shuningdek, sohaning asosiy termin va atamalarini yetarlicha bilmasliklarini tan oldilar.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish zarur. Bu esa o'z navbatida, pedagogik kollejlari va oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Maxsus adabiyotlarni tahlil qilganda, bolalarning hayoti davomida (ontogenez) ularning jismoniy rivojlanishining aniq davrlari va ko'rsatkichlari yetarlicha chuqur o'rganilmaganligi kuzatiladi. Masalan, 2022-yilda A.Abdullayev tomonidan yaratilgan va O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlarining jismoniy tarbiya fakultetlari talabalariga mo'ljallangan "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi" darsligining uchinchi nashrida maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanish davrlari quyidagicha tasniflangan [1]:

No	Davr	Yosh oralig'i
1	Emiziklik	0–4 hafta
2	1 yoshgacha	0–1 yosh
3	Dastlabki ilk bolalik	1–3 yosh
4	Birinchi bolalik	3–5 yosh
5	Kichik maktab yoshigacha	5–7/8 yosh
6	Bolalik davri	7–9/10 yosh
7	Ikkinchi bolalik	10–12 yosh

Shuningdek, Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi ham bolalarning shu yosh davrlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari orasida bolalarning ontogenetik rivojlanishi va yosh davrlari bo'yicha yetarli nazariy bilimga ega bo'lmaganlar ko'p uchraydi. Xususan, so'rovda ishtirok etgan respondentlarning 63% dan ortig'i birinchi va ikkinchi bolalik davrida bo'lgan bolalarni kichik maktab yoshigacha bo'lgan davrga to'liq moslashtira olmagan. Bu esa, bolalarning rivojlanish bosqichlarini aniq bilish va ularga mos jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini rejalashtirish imkoniyatini cheklaydi.

Shuningdek, Farg'ona davlat universiteti tomonidan tashkil qilingan malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslariga jalb qilingan 47 nafar tarbiyachining yosh guruhlari bo'yicha bilimi ham yetarli darajada emasligi kuzatildi. Natijalarga ko'ra, 63% tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarni "ontogenez"dagi maktab yoshigachalik davri va emiziklik davridan farqlay olmagan, 41% esa ilk bolalik va birinchi bolalik davrlarini aniq ajrata olmagan. Bu holat pedagogik jarayonning samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi, chunki yoshga moslashmagan mashg'ulotlar bolalarning fiziologik va psixologik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Farg'ona shahar va viloyatidagi bolalar bog'chalari tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligi haqida o'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ularning 60% dan ortig'i kasb-hunar kollejlari maktabgacha ta'lim ixtisosligini bitirgan bo'lsa, faqat 19% tarbiyachilar oliy ma'lumotli. Hatto oliy

PEDAGOGIKA

ma'lumotli tarbiyachilar orasida ham 77% jismoniy mashqlar ta'rifini bilgan, 83% esa qaysi mushaklar rivojlanishini tushungan, 11% tarbiyachi esa massaj turlari haqida faqat 2–3 misol keltira olgan. Shu sababli, tarbiyachilarning kasbiy nazariy tayyorgarligi va amaliy ko'nikmalari zamon talablariga to'liq javob bermaydi.

Bizning tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarni tayyorlash va tarbiyalash jarayoni pedagogik kollejar va o'rta maxsus ta'lim dasturlarida bilimlarning tizimlashtirilganligi sababli samarali amalga oshmayapti. Masalan, "Bolajon" Davlat dasturi (2016) va "Ilk qadam" (2018) maktabgacha ta'lim dasturlari bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish, ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish, nutq va san'at orqali rivojlantirishni nazarda tutadi, biroq jismoniy tarbiyaga oid bilimlar ko'plab mutaxassislar tomonidan yetarlicha egallanmagan.

Xorijiy dasturlar asosida innovatsion metodlarni qo'llagan maktabgacha ta'lim muassasalari Farg'ona viloyatida mavjud bo'lsa-da, ularning soni juda kam. Shu bilan birga, bolalar bog'chalaridagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazish shart-sharoitlari, zamonaviy jihozlar va pedagogik metodlar davr talablariga to'liq javob bermaydi. Bu esa, bolalarning jismoniy tarbiyasi sifatini pasaytiradi va ularning rivojlanish ko'rsatkichlarini nazorat qilishni dolzarb masalaga aylantiradi.

Shu asosda, maktabgacha ta'lim muassasalari mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi va nazariy bilimlar tizimi modernizatsiya qilinishi, ilg'or pedagogik tajribalar bilan boyitilishi, shuningdek, jismoniy tarbiya bo'yicha bilim va ko'nikmalarni oshirish zarurati mavjudligi aniqlandi. Bu esa, tarbiyachilarning jismoniy madaniyat sohasidagi kasbiy kompetensiyasini mustahkamlash va maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid maxsus adabiyotlar va mamlakatimizda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, jumladan davlat grantlari doirasidagi izlanishlar, maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlari va tarbiyachilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasida olib borilgan ishlar o'z natijalarini bergan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Respublika o'quv-uslubiy markazi tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar, shuningdek ITD-4-157 raqamli davlat granti (2009–2011-yillar) doirasida Nizomiy nomidagi davlat pedagogika universiteti va Farg'ona davlat universiteti olimlari tomonidan olib borilgan izlanishlar sohaning ilmiy asoslarini shakllantirishga xizmat qilgan.

Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim muassasalari jismoniy madaniyati bilan bog'liq adabiyotlar mavjud bo'lsa-da, ular son jihatdan yetarli emas. Tadqiqot davomida o'rgangan 40 dan ortiq muassasalardan faqat 12%ida soha mutaxassislarining faoliyatida foydalaniladigan maxsus adabiyotlarni uchratdik. Ko'pchilik mavjud adabiyotlar esa ota-onalar tomonidan tarqatma material sifatida taqdim etilgan rangli va bolalarning voqealarni anglashini osonlashtiruvchi nashrlar bo'lib, pedagoglar uchun metodik yordam vazifasini bajarmaydi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tatbiq etish, ularni nashrga tavsiya qilish jarayoni kechikkanligi nashrlarning dolzarbligini susaytirgan.

Nashrlarni ko'paytirish va ularni tarbiyachilar faoliyatiga tatbiq etish bolalarning jismoniy madaniyati bilan shug'ullanish jarayonida ularning kasbiy nazariy va amaliy malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy madaniyati mamlakatimizning jismoniy tarbiya tizimining boshlang'ich zanjiri bo'lib, inson hayotining tug'ilishidan boshlab 6–7 yoshgacha bo'lgan davrini qamrab oladi. Ushbu davr bolalarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligi, shuningdek, ularning psixomotor va ruhiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun eng samarali davr hisoblanadi.

Bolalarning organizmi aynan shu yosh davrida o'sishi va rivojlanishida yuqori intensivlik ko'rsatadi, muhim organlar va tizimlar faoliyati yaxshilanadi, jismoniy va ruhiy ko'nikmalarining rivojlanishiga mustahkam poydevor yaratiladi. Shu asosda, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy madaniyati nazariyasi va amaliyoti mazmunini shakllantirishning mukammal asosi mavjudligini baholash lozim.

XULOSA

Bizning tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, mavjud tizim mavjud bo'lsa ham, uning ilmiy-nazariy asoslari yetarlicha rivojlantirilmagan va shu sababli davlat buyurtmasiga aylangan muammo hisoblanadi. Sohaning bo'lajak mutaxassislar — oliy ta'lim bakalavrlari va magistrarlari, o'rta maxsus

ta'lim bitiruvchilari bo'lishidan qat'iy nazar, maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyatga oid nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlari shart.

Shu nuqtai nazardan, tajribalarimiz davomida biz maktabgacha ta'lim muassasalari uchun takomillashtirilgan "Jismoniy tarbiyadan takomillashgan davlat dasturi"ni yaratishga va uning o'quv materialini amaliyotda sinashga e'tibor qaratdik. Mazkur dastur bolalarning jismoniy madaniyati, sog'lom turmush tarzi va jismoniy mashg'ulot metodologiyasiga oid nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va pedagogik tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy madaniyati davlat dasturi, sohaga oid fanlarning yetakchi tushunchalari, sog'lom turmush tarzi va jismoniy madaniyat mashg'ulotlari, vositalari, ta'lim metodlariga oid atamalar va tushunchalarni tarbiyachilar uchun o'qitish samarali bo'lishi aniqlangan. Shu sababli, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning jismoniy madaniyati bilan shug'ullanishga oid kasbiy nazariy tayyorgarlikni takomillashtirish va jismoniy madaniyat nazariyasi bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev, A. (2022). *Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi*. Toshkent: Oliy ta'lim nashriyoti.
2. Koshbaxtiyev, I.A., Kerimov, F.A., Akhmatov, M.S. (2005). *Valeologiya asoslari: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma*. Toshkent: Fan.
3. Sechenov, I.I. (1991). *Optimistik etyudlar*. Moskva: Nauka.
4. Lamarck, J. (1809). *Zoologik falsafa*. Parij: Dentu.
5. Lesgaft, P.F. (1911). *Jismoniy tarbiya va inson tanasi*. Sankt-Peterburg: Imperator akademiyasi matbaasi.
6. Pavlov, I.P. (1927). *Fiziologiya bo'yicha tanlangan asarlar*. Moskva: Fan Akademiyasi.
7. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. (2016). *Bolajon: Maktabgacha ta'lim davlat dasturi*. Toshkent: Ta'lim vazirligi.
8. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. (2018). *Ilk Qadam: Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun davlat o'quv dasturi*. Toshkent: Ta'lim vazirligi.
9. Mogendovich, M.R. (1988). *Motor-visseral refleklar va funksional tayyorgarlik*. Moskva: Tibbiyot.
10. UNICEF & UNESCO. (2019). *Bolalar rivojlanishi va jismoniy faollik bo'yicha tavsiyalar*. Nyu-York: BMT.
11. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO). (2020). *5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun jismoniy faollik, sedentarlik va uyqu bo'yicha ko'rsatmalar*. Jeneva: WHO.
12. Shukurova, M., Tursunov, A. (2021). *Maktabgacha yoshdagi bolalarda harakat rivojlanishini innovatsion yondashuvlar*. Toshkent: Fan va ta'lim.
13. Abdullayeva, L. (2020). *Pedagog-mutaxassislarining kasbiy salohiyatini oshirish mexanizmlari*. Toshkent: Pedagogika tadqiqotlari jurnali.